

SHAYXZODA CHO‘LPONNING ILK TADQIQOTCHISI

Jovliyev Javlonbek

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi

Alisher Navoiy nomidagi

Davlat Adabiyot muzeyi

Ilmiy xodimi, PhD

ANNOTATSIYA

Maqolada Maqsud Shayxzodaning tahlikali yillarda Cho‘lpon ijodi va faoliyati haqida olib borgan tadqiqoti va bu ishning oqibatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Cho‘lpon, qo‘lyozmalar, matn, dramaturgiya, ijodkor laboratoriyasi, hujjat, aslyat, ko‘rsatkich, tasnif, tahlil, adabiyot, metod, matn, manba, navoiyshunoslik, tabdil.*

ANNOTATION

The article discusses Maqsud Shaykhzoda’s research on Cholpon’s work and activities during the dangerous years and the consequences of this work.

Keywords: *manuscript, text, dramaturgy, creative laboratory, document, originality, index, classification, analysis, literature, method, text, source, Navoi studies, conversion.*

Maqsud Shayxzodaning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi “O‘zbekiston yozuvchilari arxivi” fondida saqlanayotgan qo‘lyozmalar bilan tanishar ekanman mingga yaqin manbalardan birontasida Cho‘lpon oid tadqiqot yo‘qarashlari, hatto bironta “Cho‘lpon” degan so‘z uchramaydi. Aslida, kimgadir buni qidirishning o‘zi mantiqsizlik tuyulishi, o‘sha davr siyosatitini bilmaslikka yo‘yishlari mumkin. Bizga ma‘lumki, Shayxzoda qo‘lyozmalari shoirning o‘limidan to‘rt yil o‘tib, 1972-yilda xotini Sakina xonim roziligi bilan o‘sha paytdagi O‘zSSR FAning H. S. Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti fondga olib kelingan, so‘ng shu manbalar asosida institut xodimlari tomonidan 1985-yilda “Maqsud Shayxzoda arxivi” [1]kitob-ko‘rsatkich chop etilgan. Ushbu ko‘rsatkichda Cho‘lpon haqidagi bironta jumla yo‘q, vaholangki kitob chop etilgan davrga kelib oshkoralik nafasi butun mintqada kezzgan bo‘lsa-da, u hali Cho‘lpon ijodi ustida to‘plangan qora bulutlarni to‘laqonli haydab yuborishga ojizlik qilar, qo‘rquv va hadik omon edi.

Shayxzodaning Cho‘lpon ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini bilish uchun biroz ilgoriga, xosatan, 20-30-yillarga nazar tashlamog‘imiz o‘rinlidir. Bunda shoir ijodiga bizdan kam “qiziqmagan” idora – NKVD arxivlarida saqlanayotgan tergov hujjatlari ko‘makka keladi. Ayblanuvchi (Shayxzodaning 1951-yildagi tergovidan) Cho‘lpon haqidagi savolga quyidagicha javob bergan: “Cho‘lpon to‘g‘risida ilk bor 1928-1929-yillarda, ya‘ni Toshkentga kelganimdan keyin eshitdim. Uni katta avlodga mansub o‘zbek shoirlardan biri, deb aytishardi. Men u bilan taxminan 1932-yilda tanishdim. Ammo bizning tanishuvimiz qachon va qanday sharoitda ro‘y berganini hozir eslay olmayman. Har holda men havaskor sifatida borib yurganim Toshkentning o‘sha paytdagi yozuvchilar tashkilotida yoki gazeta va jurnal tahririyatlaridan birida ko‘rishgan bo‘lsam ajab emas”. [2:187] Albatta, bu zulmkor va sovuq niyatli tergovchilar shoirni chiqib bo‘lmas tuynukka boshlab borayotganini bilar va mahbusning hamma javobi ehtiyotkorlik bilan berilgan yoki umuman soxta, majburan qo‘l qo‘ydirilgan bo‘lishi mumkinligini sira esdan chiqarmasligimiz kerak.

Cho‘lpon ijodidan ommaviy qo‘rquv erta boshlangan. Balki adabiyot haqidagi fikrlarini erta bildirgani uchundir. Hozirgi kunda darsliklar betida va televideniya kanallarida tez-tez ko‘rinadigan va ko‘pchilik shunchaki, yoki bo‘lmasa, gap topilmaganda ishlatadigan ibora “Adabiyot yashasa millat yashaydi”, degan xulosani erta anglaganidandandir. Shunday qilib Cho‘lpondan “cho‘chish” uning hayotligidan boshlangan bo‘lib, to mustaqillik yillarigacha davom qildi (o‘limidan so‘ng yarim asr). Cho‘lpon “Ko‘ngil” nomli she‘rida (Toshkent, 1922) “Na faryoding, na doding bor” deya millatga murojaat etarkan, xalqda ulkan qo‘rquv shakillanib ulgurganini anglab, his qilib turganini, buni erta ich-ichidan anglab yetganini ko‘rishimiz mumkin.

Cho‘lpon she‘riyatini erk va ozodlik, zulmdan qutilish va milliy hurlikka erishish harakati edi. Cho‘lpon ana’anaviy she‘riyat tilini xalqqa yaqinlashtirdi va barmoq vaznidagi she‘rlarini xalq o‘zgacha chanqoqlik va hurmat bilan qabul qildi, xalq o‘zlari to‘la tushunadigan va dildan his qiladiagn she‘ryatdan zavq ola boshladi va hozirgi o‘zbek tili Cho‘lponning tili ekanligini alohida ta’kidlanadi va bu shubhasiz to‘g‘ridir. Uning she‘riyatiga ko‘chgan ramzlari ham shunga xizmat qiladi. Ammo borgan sari kuch olib, mustahkamlanib olgan “qizil emperiya” xalqni qo‘rqitib qo‘ydi. Xalq ko‘z oldida qurollangan hukumtaning ulkan soyasini his qilib turardi. Bu omil Cho‘lpon she‘riyatining qanchalik sevmasin, uning maslagi naqadar xavfli ekanligini erta payqagan va xushyor torta boshlagan. Bu sergaklik, ayniqsa, “ijodkor do‘stlar”lar orasida kuchayadi. Lekin shunday bo‘lsa-da bu to‘siq va hayiqishlarga qaramay Cho‘lpon xalqning birinchi raqamdagi mashhur shoir edi.

Muxtoriyat uchun o‘tkazilgan namoyishlarning birida Cho‘lponga so‘z beriladi va u Turkiston muxtoriyatining ozodlik madhiyasini o‘qiydi va butun xalq unga jo‘r bo‘ladi. Bu haqda akademik Naim Karimov quyidagilarni ta’kidlaydi: “Cho‘lpon

namoyish chogʻi otashin nutq soʻzlab, nutqi orasida “badiha yoʻli bilan “Ollohu akbar” sheʼrini aytgan va bu sheʼrning har bir satridan keyin namoyish ahli “Ollohu akbar!” soʻzlari bilan shoirga joʻrlik qilgan... “Ozod turk bayrami” sheʼri varaqa shaklida tarqatilib, Muxtoriyatning madhiyasi sifatida xalq orasida ijro etilgan”. [3:393] Bu ham shoir va uning ijodini xalq naqadar qadrlaganini anglash mumkin.

Yana bir misol, 1922-yil Turkiston oʻlkasida tuzilgan va millat yoshlarini chetta oʻqitish bilan shugʻillangan “Koʻmak” tashkiloti ham Choʻlponning bu mashhurligidan koʻp foydalangan. Choʻlpon qatnashishi aytilgan adabiy uchrashuvlardan joy topish mushkul boʻlar va kattagina mablagʻ yigʻilardi. Hatto bir talabaga yordam berish haqida Choʻlponning oʻz maqolasi bor: “Vatanning bir bolasi ilm olaman, deb tursayu, pul sababli oʻqishni tashlab ketsa, bizning turkiy millatimizga, shaʼnimizga uyat, sharmandali hol emasmi?!” – deya barchani yordam berishga chaqirdi. Shu yerning oʻzida toshkentlik gap-gashtakchilar har oy maoshlarining yigirma besh foizini chetda oʻqiyotgan talabalar maishatlari uchun ajratishga vaʼda berdi. “Agar sariq chaqasi yonimizda qolsa, bolalarimizga harom boʻlsin!” – dedi azamatlar. Bundan tashqari, shu paytgacha eshik yonida jim turgan kalta soqol bir kishi (men uning kimligini aniqlay olmadim) hamyonidagi bor pulni talabalar uchun bagʻishladi. Hatto uyga ketish uchun bir-ikki chaqa olib qolishga ham koʻnmadi. Shunda hamma uning millatparvarligiga tahsin aytdi!” Bu ham Choʻlponning naqadar mashhur va hurmatli ekanligini koʻrsatadi.

Oʻsha davr matbuoti va adbiyotini kuzatgan har qanday qiziquvchi Choʻlpon naqadar mashhur boʻlganligini anglaydi. Bunga, albatta, Choʻlponning barq etgan isteʼdodi va barakali ishlashi omil boʻladi. 20-yillarning oʻzida “Uygʻonish”(1922), “Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” kabi toʻplamlari chop etiladi, “Oʻzbek yosh shoirlari”(1923), “Goʻzal yozgʻichlar”(1925), “Adabiyot parchalari”singari toʻplam va majmualarda, gazeta va jurnallarda sheʼrlari hamda maqolalari muntazam berib borilgan. “Yorqinoy”(1921), “Halil farang” (1921), “Choʻrining isyoni” (1926), “Yana uylanaman” (1926), “Oʻrtoq Qarshiboyev” (1928), “Hujum” (1928) milliy dard va fojialar bilan jadid teatrlar repertuarlarini boyitadi.

Tazyiqlar va chaquvlar natijasida 1927-yilning 4 – 5-oktyabrida boʻlib oʻtgan hukumat rahbari ishtirokitdagi madaniyat xodimlarining II Choʻlpon ijodi “gʻoyaviy tutiriqsiz” deb topiladi [4:146]. Bu yetilgan qoʻrquvning natajasi edi. Shundan soʻng koʻpchilik ochiqcha oʻzini millat shoiridan olib qochadi. Choʻlponni qoralashda qatnashgan Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Akmal Ikromov, hatto choʻlponning tuzalishiga ham umid bildirmasligini aytadi. “Shuningdek Choʻlponni qayta tarbiyalash mumkinligi ham bahsli masala” [5:331-335] deydi u ochiqcha. Natijada, 1929-yilning noyabr oyida boshlangan qamaqamalarning xavfli toʻlqinidan soʻng uning asarlari deyarli chop etilmay qoʻyadi. 1932

va 1935-yillarda u Moskvada yashaydi va qator asarlarni rus tiliga tarjima qiladi (Gogolning “Tergovchi”, I. Frankoning “Feruza”, Andrevning “Osilgan yetti kishining hikoyasi”). 1935-yildan to hibsi qilingunga qadar (14-iyul, 1937) u yana sermazmun ijod qildi. “Kecha va kunduz” romani, “Soz” to‘mlami va qator muvaffaqiyatli chiqqan “Hamlet”, Pushkinning “Boris Godonov”, “Dubrovskiy”, Gorkiyning “Ona” kabi tarjimlarni qiladi.

Shayxzoda Toshkentga surgun qilmasligidan oldin (1928) Cho‘lpon ijodi bilan tanishib bo‘lgan. Chunki Shayxzoda Bokudagi ko‘zga ko‘ringan adabiy davrlarda bo‘lar va bunday suhbatlar Cho‘lpon ijodi va shaxsiyati haqida gapirilmaligi mumkin emas, chunki u Bokudagi turkiy xalqlar qurultoyida mudom qatnashib kelgan va shoir o‘laroq butun turkiy xalqlar o‘rtasida mashhur bo‘lgan. Ozod Sharafiddinov yozadi: “1920-yilda uni Turkiston vakillari qatorida Bokuga Sharq qurultoyiga yuboradilar. Qurultoy Cho‘lponning g‘oyaviy o‘shida muayyan rol o‘ynaydi – shu qurultoydan keyin uning she‘riyatida mazlum sharq mavzusi, mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash motivlari kuchayadi, erkin kuylash yanada teranroq mazmun kasb etadi” [6:8]

1927-yilda 14-fevral kuni “Qizil O‘zbekiston” gazetasida “O‘zbek shoiri Cho‘lpon” degan maqola e‘lon qilindi. Maqola muallifi adabiyotshunos Olim Sharafiddinov edi. Unda shoir asarlari keskin tanqid qilinadi. “Cho‘lponga bir-biridan dahshatli ayblar qo‘ydi, uning sovet tuzumining oshkora dushmani deb e‘lon qildi. To‘g‘ri, maqola muallifi Cho‘lponning “ba‘zi bir xizmatlarini” tan olishga majbur: Uning tili sodda, har turli fikrlarni ifoda qilishda yararli ham nuqsonsizdir. Bu kungi o‘zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho‘lpon tilidir. Lekin shunga qaramay, uning asarlari g‘oyaviy mazmuni butunlay zararli va bizga yotdir: “Cho‘lpon yo‘qsul xalqning shoiri emas. U – millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir”, deb yozadi Olim Sharafiddinov. Ammo bir ozdan keyin bu hukm o‘ziga yetarli emasday ko‘rinadi-da, ba‘zi she‘rlarini o‘ta bir tomonlama tahlil qilgan holda, “xalqni hech qanday qatlamga ajratmasdan “xalq uchun yonaman” deyish “men millatchiman” deyishdan iboratdir” deganga o‘xshagan o‘ta tuturiqsiz fikrga asoslanib, uzil-kesil hukm chiqaradi: “Cho‘lpon boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisidir, shularning shoiridir. Shularning ishtahasini keltiraturg‘on ruhiy oziq beradi. Asarlari shularning qarashlarini, manfaatlarini, mafkurasini aks etirgan oynadir. O‘n millionlarcha yo‘qsulni unutadir!” Dogmatik tafakkur asoratiga tushib qolgan muallifi “sinfliylik”, “g‘oyaviylik” tushunchalarini o‘ta bir tomonlama, g‘oyatda tor ko‘lamda talqin qilgani uchun, butun olam, butun adabiyot, ja‘miki ijodkorlar faqat ikki rangga – oqu qoraga ajraladi, oqi – yaxshi, qorasi – yomon deb hisoblangani uchun ham Cho‘lponga shunday tang‘alar bosdi. U hatto maqola so‘nggida shunday maslahat berishdan ham toymaydi: Cho‘lponning asarlari bostirilgan ekan, uni qattiq tahlil qilib, kuchli senzurdan o‘tkazib, muvofiylarini bosishi kerak” [6:11].

Bunga javobon “Qizil O‘zbekiston” gazetasida yosh shoir Oybekning maqolasi chop etiladi. U shoirning o‘zining kuzatishlari va fikricha kamchiliklardan holi emasligi, lekin Olim Sharafiddin keltirayotgan vajlar asossiz ekanligini ta’kidlaydi. Maqola 1927-yil, 17-may kuni “Cho‘lpon shoirni qanday tekshirish kerak?” nomi ostida e’lon qilinib, uning ijodini Pushkin bilan taqqoslaydi va Pushkin ijodini qanday pirinsiplar asosida tekshirsak, Cho‘lpon ijodiga ham shunday yondashish zarurligini ta’kidlaydi. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 22, 23, va 27-iyun kunlaridagi sonlarida Usmonxon Eshonxo‘jayev Oybekni keskin tanqid qilib, Cho‘lponni qoralash kompaniyasiga qo‘shiladi.

O‘ttiz yillik azob va o‘lim. Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning bu azobli davri haqid shunday deydi: “Cho‘lpon hayotining fojialarga to‘la, dramalar, haqoratlarga, xo‘rlklarga to‘la yillari boshlandi. Bular oz emas, ko‘p emas – o‘n yil davom etdi. O‘n yil mislsiz ruhiy iztiroblar shoir jismini kemirdi, asablarini qaqshatdi. U qand kasaliga muhtalo bo‘ldi. Uning asarlarini bosmay qo‘yishdi, nomlari ro‘yxatlardan o‘chirildi, hatto yoru do‘stlar ko‘rishib qolganda ko‘chani nargi betiga ketadigan bo‘lib qolishdi. Na sovet yozuvchisi deb tan olishgan, na burja yozuvchisi deb uzil-kesil qoralangan Cho‘lpon arosatda qoldi, qismatining noaniqligi unga to‘xtovsiz azob berardi. U bugun bo‘lmasa ertaga qamalishini sezib, muttasil xavotirlik ichida hayot kechira boshladi. Lekin shoirning bardoshiga, asablarining metinligiga, iroda kuchiga qoyil qolish kerak – ana shunday dahshatli muhitda ham u mehnat qilishdan, ijodan to‘xtamadi”.

1937-yilda Cho‘lponni ta’qib qilish har qachongidan ham oshadi. “So‘ngra mash‘um 1937-yil yaqinlashgan sari Cho‘lponning “fosh qiluvchi” maqolalarining soni ham ortadi, ulardagi tahdid va po‘pisa kuchayadi. Bu o‘rinda o‘sha maqolalarni tahlil qilishning zarurati yo‘q. O‘ylaymanki, sarlavhalarning o‘zi ham ularning chirkin mazmuni haqida ma’lumot bera oladi: “Yodgorov. O‘laqarg‘alar (Cho‘lponchilik haqida)”, “Yolqin qora dog‘lar” (Cho‘lponning millatchilik ruhdagi she‘rlari haqida), “Oltoy, Cho‘lponning millatchilik ruhdagi she‘rlari bilan kurashaylik”, “To‘raqulov “Hamletga” tuhmat”, “Natsionalisticheskaya agentura v literature. Redaksion maqola”, Akbarov. “Rasputat do konsa”, Tuyg‘un, Razoblachat do konsa”, “Tuyg‘un. Dushmani bitta ham qo‘ymay fosh qilamiz”, Tuyg‘un. Jo‘shqin lirika niqobi ostida zararkunandachilik”, “Uyg‘un. Poeziyada siyosiy o‘tkirlik bo‘lsin”, “Sh. A va G‘. Sh. Sovet yozuvchilari qatorini dushman unsurlardan tozalaymiz”, “Sharipov J., Akbarov B, Aksilinqilobiy millatchilarni oxirgacha fosh qilaylik” kabi siyosiy qarashlar ko‘zlangan maqolalar chop etildi.

Shayxzoda deyarli yakkalanib qolgan ijodkorning ko‘ngliga malham bo‘lish uchun Cho‘lpon ijodini tadqiq qila boshlaydi. Ular orasidagi rishta esa ancha qalin bo‘lib, doimiy a’loqada bo‘ladi. Akademik Naim Karimov 1933-yildan boshlab shoir va

yoʻzuvchilar davrasida boʻlgan adabiyotshunos Nasrullo Davron fikrlarini oʻzining “Maqsud Shayxzoda” maʼrifiy-biografik romanida quyidagicha ifoda qilgan: “Shayxzoda Choʻlpon bilan Usmon Nosirni, ayniqsa, yoqtirar, ularning ham Shayxzodaga boʻlgan hurmatlari gʻoyat ziyoda ekan. “Sozim” sheʼrlar toʻplami nashr etilganida, Choʻlpon bu toʻplamiga: “Sozini qoʻliga qaytadan olgan shoirlardan – ulugʻ Navoiy va Fuzuliy vatandoshi boʻlmish shoir Maqsud Shayx oʻgʻliga”, deb yozib bergan. Uning aytishicha, Shayxzoda Choʻlpon sheʼrlaridagi badiiy nafosatni chuqur his etgan va qadrlagan”. [2:183] Afsuski, bu kitob ham Shayxzoda kutubxonasidan yoʻqolgan.

Shayxzoda Navoiy ijodidan soʻng, Choʻlpon ijodiga toʻxtalishi uning naqadar kuchli tanlovi, didi va jurʼati borligini ham koʻrsatadi. Til va adabiyot institutining oʻsha paytdagi direktori Otajon Hoshimovning 1937-yil 13-avgustda Shayxzodaning Choʻlpon haqida tadqiqot olib borgan haqida quyidagicha koʻrsatma beradi: “...Shunday qilib, Shayxzoda – Choʻlpon, Oybek – Abdulla Qodiriy, Yoqubov esa Oybek toʻgʻrisida yozishdi”. Bundan ham koʻrinib turibdiki, Shayxzoda Choʻlponga boʻlgan muhabbatini tadqiqotida koʻrsatgan. Lekin Otajon Hoshimovning keyingi, yaʼni 1937-yil 25-sentyabrda boʻlib oʻtgan tergovdan yozib olingan soʻzlari qattiq qiynoq evaziga majburan imzolanganini bilsak boʻladi: “Biz Fayzulla Xoʻjayevning keksa aksilinqilobchi, millatchi kadrlarni avaylash toʻgʻrisidagi barcha koʻrsatmalarini bajardik: ashaddiy aksilinqilobchilar: Fitrat, Gʻ.O.Yunusov, Elbek, Gʻozi Yunus..., Oybek, Muhammadjonov va boshqalarni institut tevaragida jipslashtirdik...”¹

“Turk beshigi – Turkiston, Yeri oltin, togʻlari kon, Bolalari qahramon, Vatan uchun berur jon. Turkistonlik – shonimiz, Turonlik – unvonimiz,

Vatan – bizning jonimiz, fido oʻlsun qonimiz!” deya madhiya bitgan shoirning qoni Vatanga fido boʻldi.

Bugun Shayxzodaning Choʻlpon haqidagi tadqiqot yoʻq, aniqroq aytadigan boʻlsak topilmagan. Tahlikali yillarda qoʻlyozma yoʻq qilingan yoki maxsus idoralar tomonidan olib ketilgan. Katta ehtimol bilan Shayxzoda uni butunlay yoqib yubormagan, qayergadir yashirgan boʻlishi mumkin. Bu haqda ustozimiz, akademik Naim Karimov tahminiy qarashiga koʻra, Choʻlpon haqidagi xavfli tadqiqotni u oʻz yurt Azorbayjonga olib borib yashirgan boʻlishi mumkin. Ammo oʻsha paytda barcha sovet davlatlarida xoʻroz bir xilda qichqirayotgan edi, buni yaxshi anglagan Shayxzoda balki qoʻlyozmani u yoqqa olib ketmagandir.

Shayxzoda oʻzining “Mirzo Ulugʻbek” tragediyasida shoh va yetuk olim Mirzo Ulugʻbek tilidan aziz shogirdi Ali Qushchiga aytgan quyidagi soʻzlari muallifning taqdir iplariga naqadar bogʻliq holda yangrashiga quloq tutaylik: “Oh, azizim, shu serxatar, yirqich zamonda, Senu menga ilm-fanga fursat qayonada!”[7:47] ... Afsuslar boʻlsinki shu serxatar va yertqich zamon bizni Shayxzodaning Choʻlpon haqidagi tadqiqotidan bebahra qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maqsud Shayxzoda qo‘lyozmalari” – Toshkent: O‘zSSR FAning H. S. Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti, 1985-y. – 202 bet.
2. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda/ma’rifiy-biografik roman. –T.: “Sharq”, 2010. – 404 bet.
3. Naim Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2008. – B. 393.
4. Yo‘ldoshov Qozoqboy. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9 sinf uchun darslik. Qayta ishlangan ikkinchi nashri/ Qozoqboy Yo‘ldoshov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshov;(Ma‘sul mualliflar: V. Rahmonov, N. G‘ulomova). –T.: Yangiyo‘l polygraph service. 2010. –B. 346.
5. Akmal Ikramov. Izbrannyye trudy. Tom. 1. T., 1972, str. 332.
6. Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”: Roman/ (To‘plovchilar: N. Karimov, Sh. Turdiyev; Masu’l muharrir va so‘z boshi muallifi Ozod Sharafiddinov; Tahrir hayati: E. Vohidov va boshqalar). T.: Adabiyot va san’at nashr., 1991 – B. 8.
7. Maqsud Shayxzoda. Tanlangan asarlar/III tom/G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T.: 1973-y. –B. 344.